

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY  
MAJMUA



TOSHKENT- 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH  
ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA  
MAMLAKATSHUNOSLIK  
(mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)  
YO'NALISHI**

**«XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA»  
MODULI BO'YICHA**

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

**Toshkent 2023**

**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** Tuxliev N. – O'zXIA, “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyyarat turizmi” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Taqrizchi** Isadjanov A.A. – O'zXIA, “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyyarat turizmi” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabragi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
<b>III. MA'RUZA MATNLARI.....</b>	<b>18</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....</b>	<b>33</b>
<b>V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR.....</b>	<b>38</b>
<b>VI. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>39</b>
<b>VII. GLOSSARIY .....</b>	<b>41</b>
<b>VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>54</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Mazkur ishchi dastur O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5544-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020-2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risida”gi PF-5992-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4022-son, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019–2030 yillar davrida O’zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-son hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg’or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o’zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko’nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo’yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo’yiladigan umumiyligi malaka talablari va o’quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo’lib, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o’quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo’yicha so’nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo’llash bo’yicha tegishli bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo’nalishining o’ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Xalqaro iqtisodiy integratsiya” modulining maqsadi tinglovchilarda xalqaro iqtisodiy integratsiyaga oid nazariy va amaliy bilimlarni takomillashtirish, jahonda sodir bo’layotgan integratsiya jarayonlarni mohiyati, rivojlanish omillari va bosqichlari, mexanizmi, xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuvning ijobjiy va salbiy jihatlarini aniqlash va baholash, O’zbekiston iqtisodiyotini jahon xo’jaligi tizimiga integratsiyalashuvi to’g’risidagi yangi bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish hisoblanadi.

“Xalqaro iqtisodiy integratsiya” modulining **vazifalari**:

- “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” yo’nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko’nikma, malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlantirish mexanizmini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliv ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo’lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o’zlashtirilishini ta’minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o’qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish;
- “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” yo’nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

## **Modul bo’yicha tinglovchilarining bilimi, ko’nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar**

“Xalqaro iqtisodiy integratsiya” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini;
- globallashuv jarayonida xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlanish omillarini;
- xalqaro iqtisodiy integratsiyani afzalliklari va kamchiliklarini;
- xalqaro iqtisodiy integratsiyaning statik samaralarini;
- jahonda xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuvi jarayonlarini kelib chiqish sabablarini;
- integratsiya jarayonlarini tasniflanishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini;
- integratsiya munosabatlarining rivojlanish bosqichlarini;
- iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlarini;
- “Domino samarasi”ni;
- Evropa Ittifoqining shakllanishini;

- integratsion jarayonlarni rivojlanishini;
- Shengen kelishuvini;
- Maastricht va Amsterdam kelishuvlarini;
- Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasini;
- Mustaqil davlatlar hamdo'stligini shakllanishini;
- erkin savdo hududi va uni shakllantirish muammolarini;
- umumiy iqtisodiy hududni;
- Markaziy Osiyo hamkorligini;
- O'zbekiston iqtisodiyotini jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining afzalliklari va ustuvor yo'nalişlarini **bilishi kerak**.

**Tinglovchi:**

- xalqaro iqtisodiy integratsiyani tahlil qilish;
- globallashuv jarayonida xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlanish omillarini baholash;
- integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligini taqqoslash;
- Evroskeptizm va uni rivojlanish sabablarini aniqlash;
- umumiy qishloq xo'jaligi siyosatini tahlil qilish;
- Evropa hamjamiyatida iqtisodiy integratsiya bosqichlarini farqlash;
- erkin savdo hududi va uni shakllantirish;
- xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi ko'rsatkichlarini, indikatorlarini hisoblash va tahlil qilish;
- O'zbekistonning xalqaro hududiy integratsion birlashmalarga a'zo bo'lishning afzalliklari va kutilayotgan zararlarni, pandemiya Covid-19ni xalqaro integratsion jarayonlarga ta'sirini baholash **ko'nikma va malakalarini egallashi lozim**.

**Tinglovchi:**

- O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi va jahonda chuqurlashib borayotgan integratsiyalashuv jarayonlarida jahoning ayrim mintaqalarida integratsion jarayonlarni rivojlanish tajribasini respublikamizda qo'llashga oid kompetentsiyalarni egallashi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Xalqaro iqtisodiy integratsiya” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

O’quv jarayonida ta’limning interfaol o’qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo’llash nazarda tutilgan:

- ma’ruza mashg’ulotlarida “Aqliy hujum”, “Kutish yo’ldoshi”, “Kontseptual jadval”, “O’ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing” kabi interfaol o’qitish metod, shakl va vositalaridan;

- amaliy mashg’ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, kichik guruhlarda ishlash, SWOT-tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o’qitish metod, shakl va vositalarni qo’llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

O'quv modul mazmuni o'quv rejadagi "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti" hamda "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Jahonda xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarini ob'ektiv shart-sharoitlari, zaruriyat, xususiyatlari, amalga oshirish bosqichlari va rivojlanish tendentsiyalari, qonuniyatlar, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashuv yo'naliшlarida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda mamlakatimizni jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining ustuvor yo'naliшlar kontseptual asoslari yoritib berilgan. Zamonaviy iqtisodchi pedagog kadrlar uchun xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini afzallik va kamchiliklarini kompleks tahlil etish va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda muhim o'rinni tutadi.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jam'i	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	Xalqaro iqtisodiy integratsyaning ob'ektiv shart-sharoitlari va nazariy kontseptsiyalari	4	2	2	
2	Xalqaro iqtisodiy integratsyaning rivojlanish bosqichlari va amalga oshirish mexanizmi	4	2	2	
3	Evropada xalqaro integratsiya. Evropa ittifoqi	6	2	2	2
4	Amerikada iqtisodiy integratsiya jarayonlari xususiyatlari	4		4	
5	Osiyoda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlanish yo'naliшlar	2		2	
6	MDHda xalqaro integratsiyani rivojlanish muammolarini va istiqbollari. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi yo'naliшlar	6	2	2	2

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv shart-sharoitlari va nazariy kontseptsiyalari

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati. Globallashuv jarayonida xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlanish omillari, afzalliklari va kamchiliklari. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning statik samaralari. Savdoni shakllanishi va savdodan chetlashish samarasi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya samarasi va omillari. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning dinamik samaralari. Beli Ballas yondashuvi. "Ikkinchi yaxshi" savdo siyosati va iqtisodiy integratsiya.

### 2-mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish bosqichlari va amalga oshirish mexanizmi

Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari. Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi etukligi darajasining yaqinligi. Integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligi, aksariyat hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Integratsiyalashayotgan mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyligi. Afzallik namoyish qilish samarasi. "Domino samarasi". Integratsiya jarayonlarining shakllari va bosqichlari. Erkin savdo zonasi. Bojxona ittifoqi. Yagona bozor va iqtisodiy ittifoqi. Iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini shakllanish yo'llari va muammolari.

### 3-mavzu. Evropada xalqaro integratsiya. Evropa ittifoqi.

Evropa Ittifoqi (EI)ning shakllanishi va integratsion jarayonlarni rivojlanishi. Asosiy Evropa Insitutlari. Evropa ko'mir va po'lat hamjamiyati. Evropa iqtisodiy hamjamiyati. Evroatom. 1957 yil 25 martda imzolangan Rim kelishuvi va uning Evropada xalqaro integratsiya jarayonlarini rivojlanishidagi o'rni. Evropa ijtimoiy siyosati. Evropa Ittifoqining kengayishi. Evropa hamjamiyatida iqtisodiy integratsiya bosqichlari. Shengen kelishuvi. Maastrixt va Amsterdam kelishuvlari. Evropa Ittifoqini rivojlanish iqtisobollar. Evro valyuta zonasi. Umumiy qishloq xo'jaligi siyosati - samarali integratsiya siyosati sifatida. Evroskeptizm va uni rivojlanish sabablari va yo'nalishlari. Breksit sabablari va oqibatlari. Pandemiyani Evropa Ittifoqi iqtisodiyotiga ta'siri va unga qarshi kurash xususiyatlari. Jahonning ayrim mintaqalarida integratsion jarayonlarni rivojlanish tajribasi. Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi va boshqalar.

### 4-mavzu. MDHda xalqaro integratsiyani rivojlanish muammolari va istiqbollari. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi yo'nalishlari

Mustaqil davlatlar hamdo'stligini shakllanishi. MDHda integratsion jarayonlarni holati va rivojlanish maqsadi va vazifalari. Mustaqil davlatlar hamdo'stligining boshqaruvi organlari. MDH davlat rahbarlarining kengashi. Mustaqil davlatlar

hamdo'stligini rivojlanish xususiyatlari. Erkin savdo hududi va uni shakllantirish muammolar. Umumiy iqtisodiy hudud. Markaziy Osiyo hamkorligi. Evroosiy oqtisodiy hamkorligi. MDHda integratsiya jarayonlarini xususiyati, rivojlanish muammolarini va istiqbollari.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot.**

#### **Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv shart-sharoitlari va nazariy kontseptsiyalari**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati.
2. Globallashuv jarayonida iqtisodiy integratsiyaning o'rni.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning namayon bo'lisl yo'naliishlari.
4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning statik samaralari.
5. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning dinamik samaralari.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, iqtisodiy integratsiya, statik samara, dinamik samara, savdoni shakllanish samarasi. savdodan chetlashish samarasi..

### **2-amaliy mashg'ulot.**

#### **Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish bosqichlari va amalga oshirish mexanizmi**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning maqsadi va vazifalari.
2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishing shart-sharoitlari va rivojlanish omillari.
3. Integratsiya jarayonlarining shakllari va bosqichlari.
4. Integratsion birlashmalar tipologiyasi.

**Kalit so'zlar:** ustunlikni namoyish qilish samarasi, "domino samarasi", erkin savdo zonasasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi, to'liq integratsiya

### **3-amaliy mashg'ulot.**

#### **Evropada xalqaro integratsiya. Evropa ittifoqi.**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Evropa iqtisodiy hamjamiyatini shakllanishi, shart-sharoitlari va vazifalari.
2. Evropa Ittifoqi iqtisodiy integratsiya bosqichlari va ularning xususiyatlari .
3. Evropa Ittifoqining kengayish bosqichlari.
4. Pandemiyani Evropa Ittifoqi iqtisodiyotiga ta'siri
5. Breksit sabablri va oqibatlari
6. Evropa Ittifoqini rivojlanish istiqobollari

**Kalit so'zlar:** Evropa iqtisodiy hamjamiyati, Evropa ko'mir va po'lat hamjamiyati, Evroatom, Rim kelishuvi, Shengen kelishuvi, Maastricht kelishuvi, Breksit

#### **4-amaliy mashg'ulot.**

#### **Amerikada iqtisodiy integratsiya jarayonlari xususiyatlari.**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Shimoliy Amerika erkin savdo hududi: tashkil etilish shart-sharoitlari, maqsad va vazifalari.
2. NAFTAning rivojlanish xususiyatlari
3. NAFTA va intelektual mulkni himoya qilish muammosi
4. Janubiy Amerika mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR) ning tashkil etilish shart-sharoitlari va maqsadlari.
5. MERKOSURning boshqa integratsion guruqlar bilan hamkorligi va rivojlanish istiqbollari
6. Kovid-19ni Amerikadagi iqtisodiy integratsiya jarayotnlariga ta'siri

**Kalit so'zlar:** NAFTA, MERKOSUR, And millatlar hamdo'stligi

#### **5-amaliy mashg'ulot.**

#### **Osiyoda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlanish yo'nalishlari**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Osiyoda xalqaro iqtisodiy integratsiya xususiyatlari
2. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) tarkibi va faoliyati sohalari
3. Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligini (ATES) tashkil etilishi va rivojlanishi istiqbollari

**Kalit so'zlar:** ASEAN, ATES

#### **6-amaliy mashg'ulot.**

#### **MDHda xalqaro integratsiyani rivojlanish muammolari va istiqbollari.**

#### **O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi yo'nalishlari**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligini shakllanishi.
2. MDHning maqsadi va vazifalari.
3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligining boshqaruv organlari.
4. Mustaqil davlatlar hamdo'stligini rivojlanish xususiyatlari.
5. MDHda integratsiya jarayonlarini rivojlanish muammolari va istiqbollari.
6. O'zbekistonning integratsion salohiyati.
7. O'zbekistonni xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishini ustuvor yo'nalishlari.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, MDH davlat rahbarlarining kengashi, Umumiy iqtisodiy hudud, Evroosiyo iqtisodiy hamkorligi, savdo urushlari, integratsion salohiyat, iqtisodiy integratsiya tuzilmalari, integratsiya muammolari.

## O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- **davra suhbatlari** (ko'rيلayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- **bahs va munozaralar** (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

- **Keng ko'lamlı suhbat.** Hamma uchun umumiyl bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida oolib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

- **Press-konferentsiya.** Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

- **Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish.** Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatl yo'naliishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

## **«Blum kubigi» metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

1. Ushbu metodni ko'llash uchun, oddiy kub kerak bo'ladi. Kubning har bir tomonida ko'yidagi so'zlar yoziladi:
  - **Sanab bering, ta'rif bering (oddiy savol)**
  - **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
  - **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
  - **Taklif bering (amaliyot bilan bog'liq savol)**
  - **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
  - **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**
2. O'qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O'qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so'z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

## **“KWHL” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

### **Izoh. KWHL:**

*Know – nimalarni bilaman?*

*Want – nimani bilishni xohlayman?*

*How - qanday bilib olsam bo'ladi?*

*Learn - nimani o'rghanib oldim?.*

## **“KWHL” metodi**

<b>1. Nimalarni bilaman:</b> -	<b>2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</b> -
<b>3. Qanday qilib bilib va topib olaman:</b>	<b>4. Nimalarni bilib oldim:</b> -


### “W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



### “VEER” metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi



- trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyl muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulozhazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



- navbatdagi bosqichda barcha guruhrar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Muammoli savol

1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

**Xulosa:**

### "Keys-stadi" metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rjanmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rjanish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruvin fanlarini o'rjanishda

foydanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydanish mumkin.

### **“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishslash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishslash;</li> <li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishslash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### **“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda

foydanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.


Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### Тест

•

### Муаммоли вазият



### Тушунча таҳлили (симптом)



### Амалий вазифа

### “Insert” metodi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lif oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lif oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilarni orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

## III. MA'RUAZ MATNLARI

## **1-mavzu. Globallashuv davrida jahon xo'jaligida integratsion jarayonlarni rivojlantirish shart-sharoitlari**

**Reja:**

- 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmun-mohiyati.**
- 2. Globallashuv jarayonida iqtisodiy integratsiyaning o'rni va ahamiyati.**
- 3. Iqtisodiy integratsiyaning sodir bo'lisl yo'naliishlari.**

**Tayanch iboralar:** integratsiya, iqtisodiy integratsiya.

Globallashuv XX-XXI asrlarda jahon iqtisodiyotining rivojlanishdagi eng asosiy jarayonlaridan biri bo'lib, xo'jalik hayat baynalminallashuvining yangi bosqichi hisoblanadi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi, xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlardan natijasida milliy iqtisodiyotlarni o'zaro aloqasi va bir biriga bog'liqligi kuchaymoqda. Tashqi omillarni hisobga olmasdan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Ma'lum bir davlatlarning iqtisodiyotlari bir-biriga bog'liqligi kuchayishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni milliy iqtisodiyotlarga ta'sirini ortishi, mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi ishtiroki xo'jalik faoliyatni baynalminallashuvi deb ataladi. Iqtisodiyot baynalminallashuvi bir qator bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, dastlabki bosqichi xalqaro iqtisodiy hamkorlik hisoblanadi va bunda tashqi savdoning vujudga kelishi (XVIII asr oxirlari va XX asr boshi) bilan bog'liq. Xalqaro va davlatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalarning me'yoriy rivojlanishi, qayta ishlab chiqarish jarayonining milliy chegaralardan tashqariga chiqishi xalqaro iqtisodiy hamkorlik deb tushuniladi.

Keyingi bosqichi xalqaro iqtisodiy integratsiya deb yuritiladi. Bu xalqaro mehnat taqsimotning chuqurlashishi, kapital harakatining baynalminallashuvi, ilmiy-texnik rivojlanish global xarakterga ega bo'lganligi, ochiq milliy iqtisodiyot va erkin savdo darajasi ortishi bilan izohlanadi. Integratsiya so'zi lotin tilidan (integratio) olingan bo'lib, ma'lum bir qismlarning umumlashishi, yagona bir shaklga kelishi va birlashishini anglatadi. Mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlari o'zaro yaqinlashib, bir-biriga birlashishi hamda baynalminallashuv jarayonida yagona bir ishlab chiqarish tizimida faoliyat yuritishi xalqaro iqtisodiy integratsiya deb ataladi.

Iqtisodiy integratsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- turli mamlakatlarning milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik hamda ularning to'liq yoki qisman umumiylashishi;
- mamlakatlar o'rtasida tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi xarakatidagi

to'siqlarni bartaraf etish;

- yagona bozor yaratish maqsadida ma'lum bir davlatlar bozorlarining yaqinlashuvi;
- turli mamlakatlarga taalluqli bo'lgan iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi farjni yo'q qilish;
- har bir mamlakatda iqtisodiy faoliyat bilan shug'lullanuvchi chet el sub'ektlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama, hududlararo va global sharoitda bo'lisi mumkin. Hozirgi vaqtda integratsion birlashmalarning eng asosiy xususiyatlari bu hududiy darajada rivojlanishi hisoblanadi. Davlatlararo boshqaruv tizimini joriy etgan holda, yakka umumiy mintaqaviy xo'jalik majmui tashkil etilmoqda. Hozirgi bosqichda xalqaro aloqalar tizimining barcha jabhalarida izchil o'zgarishlar sodir bo'lmokda. Uning asosiy sababi globallashuv jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Globallashuv baynalminallashuvning eng yuqori bosqichi bo'lib, shu nuqtai nazardan bu faqatgina inson va tovarlar harakatining o'sishigina emas, balki bilimlar va ma'lumotlar almashuviga asoslanadi. Globallashuvga atroflicha yondashgan holda, aholining erkin migratsiyasi, tovar va xizmatlar, texnologiya va ma'lumotlarning to'siqsiz erkin o'tishi, investitsiyalar hajmining kengayishi, hududiy va ixtisoslashgan bozorlarning o'zaro baynalminallashuvi, ekologik, demografik muammolarni dolzarb masalaga aylanganligi tushuniladi.

Iqtisodiy integratsiya va globallashuvning rivojlanish bosqichlarini 1.1-rasmda ko'rish mumkin. Ushbu rasmda jahon iqtisodiyotining bir qator baynalminallashuv jarayoni qisqartirilgan. Ushbu sxemadagi jarayon ma'lum darajada abstrakt bo'lib, unda «xo'jalik hayotdagi baynalminallashuv», «xalqaro iqtisodiy hamkorlik», «xalqaro iqtisodiy integratsiya», «gloablizatsiya» kabi tushunchalarni qamrab olishga harakat qilingan.

Iqtisodiy integratsiya globallashuv jarayonlarining asosini tashkil etadi. Transmilliy korporatsiyalarning aksariyati uchun jahon yagona bir bozorga aylangan. Ko'pgina hududlar ular iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun ochiqdir. Ko'pgina olimlar fikriga ko'ra, hech qanday jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa jarayon yoki harakatlarni globallashuvdan chegaranlangan holda, atroflicha ko'rib chiqib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, xalqaro aloqalarning globallashuvi jamiyat hayoti hamda faoliyatidagi turli soha va jabhalarni bir-biriga ta'sir etishi hamda bog'liq bo'lib qolishining kuchayyotgani tushuniladi.

Globallashuv – bu iqtisodiy-ijtimoiy yangiliklardagi eng yorqin taraqqiyotning ko'rinishi hisoblanadi. Globallashuv o'zining boshlang'ich bosqichida barqaror rivojlanishga yangi xavflarni vujudga keltirdi. Bu taxdidlar bir qarashda G'arbiy

davlatlardan tashqari boshqa davlatlarga taalluqli bo'lib ko'rindi, aslida bu er yuzidagi barcha insoniyatga xavf tug'diradi. Bu esa jahonda sodir bo'layotgan barcha voqealar xodisalar hamda jahon tizimini barqarorlashtirish bo'yicha olib borilayotgan harakatlarda insoniyatning mas'uliyatini oshirishga chaqiradi.



Globallashuv jahon xo'jaligida barcha hudud va sohalarni o'z ichiga qamrab olgani sababli milliy xo'jalik rivojlanishidagi tashqi va ichki omillarni o'zgartirib birinchisining foydasiga hal etadi. Ishlab chiqarish omillari, texnologiya va kapitalga talab mavjudligidan kelib chiqqan holda, hech qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining hajmi (yirik, o'rta, kichik) va rivojlanganlik darajasidan (rivojlangan, rivojlanayotgan yoki o'tish davridagi) qat'iy nazar o'zini etaricha ta'minlay olmaydi. Juhon xo'jaligi faoliyatidagi asosiy ishtirokchilarning hatti-harakati va olib borayotgan siyosatini hisobga olmasdan hech bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish strategiyasini maqsadli shakllantirib amalga oshira olmaydi.

Globallashuv tushunchasi ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda uchraydi. Lekin hech birida ushbu terminga aniq va to'liq ma'lumot berilmagan. Adabiyotlarda mualliflar turlicha talqin qiladilar.

Kaliforniya universiteti sotsiologi, professor M.Kastels globallashuvni «yangi kapitalistik iqtisodiyot» deb ta'rif berib, uning quyidagi asosiy ko'rinishlari keltirgan: informatsiya (ma'lumot), bilim va informatsion texnologiya ishlab chiqarish darajasi hamda raqobatni o'shining asosiy manbai hisoblanadi.

Bugungi kundagi barcha uchun talab erkin va samarali tadbirkorlik faoliyatini olib borish, yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi bozorini tashkil etish, mamlakatlarni bitta jahon iqtisodiy xo'jaligi majmuiga birlashtirish uchun global iqtisodiy, huquqiy, informatsion va madaniy muhit yaratishdan iborat.

To'g'ri, haqiqatdan biz hozir va yana o'n yildan keyin ham global bozor yarata olmaymiz. Global bozor yaratishga turli siyosiy sabablar ta'sir etadi. Kapital aylanmasi va savdo tizimini umumiylashuvi yagona iqtisodiy xo'jalik muhitini tashkil etmadni. Jahon iqtisodiyotining tizimi 200 danortiq mamlakatning milliy xo'jaliklarini o'z ichiga olib, har biri o'ziga xos xususiyatiga egaligi tufayli rivojlanish barqaror bo'lmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi yarmidan ko'p aholi yopiq iqtisodiyotli tizimda istiqomat qilib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda bevosita qatnashmayaptilar. Shu bilan bir qatorda xalqaro iqtisodiyotda ikkita tizim mavjud: xalqaro va o'zini o'zi qoplaydigan iqtisodiyot bo'lib, ikkinchi turdag'i iqtisodiyotning jahon xo'jalikdagi ahamiyati bosqichma-bosqich qisqarmokda.

Texnologik nuqtai nazardan, mamlakatlar orasidagi farq oshganligi sababli jahon iqtisodiy muhiti xilma-xilligicha qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda texnologiyaning 4-5-avlodi bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2-3- avlodi, lekin qoloq yoki o'tish davridagi mamlakatlarda sanoat davrining boshidagi texnologiyalar foylanilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyalarga egaligi sababli ilm talab etadigan tovar va xizmatlarni, past va o'rtal darajada rivojlangan mamlakatlarga eksport qilib, katta foyda olmoqda.

Bugungi kunda xo'jalik muhitining xilma-xilligi jahon iqtisodiy hududidagi globallashuv jarayonlarni kelajakdagi rivojlanishiga halaqit beradigan hal etilmagan masala bo'lib qolmoqda.

Globallashuvning iqtisodiyotdagi asosiy belgisi integratsiya va avtonomizatsiya jarayonlarning uyg'unlashishidir. Bu «Neysbitt paradoksi», «Iqtisodiyotning globallashuv darajasini kuchayishi sari, undagi kichik qatnashuvchilar shunchalik kuchli» degan kitoblarda o'z aksini topadi<sup>4</sup>. Dj.Nisbitt fikriga ko'ra, ushbu jarayon bir tomonidan siyosiy mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish, ikkinchi tomonidan iqtisodiy uyushma va birlashmalar tashkil etilishiga olib keladi.

Shundan kelib chiqib, globallashuvning paradoksiga ko'ra, jamiyatning ichki munosabatlari qanchalik boy va baquvvat bo'lsa, shunchalik uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darjasini yuqori bo'ladi. Ular ichki resurslarni oqilona va maqsadli ishlatsalar, shunchalik integratsion aloqalarning imkoniyatlaridan foydalanadilar va global bozor sharoitiga moslashadilar.

### **Nazorat savollar:**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsianing mazmun-mohiyati.

2. Globallashuv jarayonida iqtisodiy integratsiyaning o'rni va ahamiyati.
3. Iqtisodiy integratsiyaning sodir bo'lish yo'nalishlari.

## **2-mavzu. Mamlakatlararo integratsion hamkorlik rivojlanishining ob'ektiv omillari va bosqichlari**

**Reja:**

- 1. Integratsion jarayonlarning ta'riflanishi.**
- 2. Integratsion guruuhlar tipologiyasi.**
- 3. TIFni davlatlararo tartibga solinishi.**

**Tayanch iboralar:** integratsion jarayonlar, integratsion guruuhlar, transmilliy kompaniyalar, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Hozirgi paytda integratsiya jarayonlari to'g'risida mutaxassislar orasida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bir guruh iqtisodchilar integratsiyani mamlakatlar o'rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish orqali «resurslar cheklanganligi» muammosini bartaraf etish yo'li deb talqin etishadi (bu orqali alohida olingan mamlakatda nisbatan serxarajat tovarlar ishlab chiqarishni yo'qotish, texnologik ayirboshlashni kengaytirish imkoniyatini beradi, bu NIOKRga xarajatlarni kamaytiradi). Boshqa guruh olimlar integratsiyani talab etuvchi dastlabki turki sifatida noiqtisodiy omillarni ilgari suradi (masalan, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash). Uchinchi guruh esa integratsiya guruuhlarini tashkil etish ishlab chiqarishni barqaror o'sishi, ijtimoiy barqarorlik kabi maqsadlarga osonroq va tezroq erishish imkoniyatini beradi deb hisoblaydi. Bu va boshqa nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni qayd etib o'tishimiz mumkin, integratsiya - bu hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarining o'zaro yaqinlashi va bir-biriga kirib borishi jarayonidir.

Integratsion jarayonlar XIMda ikkita asosiy miqyosda ta'riflanadi:

- mikro — transmilliy korporatsiyalarning tashkil etilishi orqali;
- makro — iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish orqali.



## 1.2- rasm. Integratsion guruqlar tipologiyasi

XIM rivojlanishining zamonaviy bosqichida turli tabiatdagi integratsiya jarayonlari sayyoramizning barcha qit'alarida mavjud. Kundan kunga xo'jalik hayotining integratsiyalashuvi jarayoni chuqurlashib bormoqda. Bu integratsiyalashuv XIMning savdodan tortib ilmiy-axborot ayirboshlashgacha bo'lgan turli ko'rinishlarining bir-biriga qo'shilib borishini nazarda tutadi.

Integratsion guruhlar tipologiyasi asosini ishtirokchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining makro va mikro darajada o'zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishining naqadar chuqurligini baholash tashkil etadi.

Bu mezonga ko'ra integratsiyaning to'rt ko'rinishini ajratib ko'rsatish mumkin: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiyo bozor va iqtisodiy ittifoq. Ko'rsatib o'tilgan integratsiya ko'rinishlarining umumlashtirilgan tavsiflari 1.2-rasmda keltirilgan.

Erkin savdo hududining o'ziga xos alomati uning ishtirokchilari o'rtasida bojxona tariflari va kvotalarni o'zaro bekor qilish to'g'risida kelishish ekanligini qayd etib o'tamiz, bunda uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo siyosati mustaqil tanlanishi mumkin.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, erkin savdo hududlari xalqaro iqtisodiy integratsiyaning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Erkin savdo hududi zamonaviy talqinda preferentsial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan holi savdo tartibiga rioya qilinadi. ESH amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o'zaro savdosida bojlar, litsenziya va kvotalarni muzlatish va asta-sekin bekor qilish to'g'risidagi bitimning imzolanishi natijasida shakllanadi. Bunda, EI, NAFTA va MERKOSUR tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan savdo rejimini erkinlashtirish cheklangan tabiatga ega, dastlab bojxona nomenklaturasidagi ba'zi pozitsiyalarni qamrab oladi.

ESH ijobiyl jihatlariga ishtirokchi mamlakatlar savdo siyosatida barqarorlikning o'rnatalishini kiritish mumkin. Bu ESHga a'zo-mamlakatlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi, ular xalqaro mehnat taqsimotidan samarali foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Salbiy jihatlarga kelsak, ular ichki bozorda raqobatning kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari ESHni yaratish millatlararo tartibga soluvchi organlarni tashkil etish bilan birga kuzatilmaydi, bu esa birgalikdagi qarorlar qabul qilishni sekinlashtiradi va bu qarorlarni bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Biroq integratsiyaning boshlang'ich bosqichidagi qiyinchiliklar va muammolarga qaramasdan, erkin savdo hududlari jahon iqtisodiyotida keng tarqalgan.

Huquqiy nuqtai nazardan bojxona ittifoqi (BI) ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida o'zaro va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan soliq siyosatining o'tkazilishini aks ettiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa bojxona ittifoqlarini tashkil etish, bu yagona iqtisodiy makonni shakllantirish va bu makon doirasida har qanday bojxona chegaralarini bartaraf etishni anglatadi.

TIFni davlatlararo tartibga solishning bu ko'rinishi BI qatnashchilari o'rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarifni joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shunda.

Bojxona ittifoqlarini yaratish va ularning shakllanishining konkret natijalari unga a'zo mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o'zgarishlarda o'z aksini topadi: talab va taklif nisbiy ustunlik tabiatiga mos ravishda o'zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoning kengayishiga qarab turmush farovonligini oshiradi, biroq ayni paytda ishlab chiqaruvchilarning arzon mahsulotlardan qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishga moslashishlari natijasida farovonlikni pasaytiradi.

Erkin savdo hududidan bojxona ittifoqi va umumiy bozor orqali yagona valyutaga ega bo'lган bir butun iqtisodiy uyushmagacha bo'lган katta yo'lни bosib o'tgan Evropa Ittifoqining tashkil bo'lish tarixi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xuddi shu yo'nalishda boshqa hududiy guruhlar (ASEAN va boshqalar) rivojlanib bormoqda.

Integratsiya jarayonlarining keyingi rivojlanishi integratsiyaning eng etuk ko'rinishlari umumiy bozor, so'ngra iqtisodiy ittifoqning shakllanishiga olib keladi. Juda ko'plab iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishi va taraqqiyotidan ma'lumki, aynan umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq eng ko'p diqqatga sazovordir.

Janubiy Amerika, Afrika va Osiyodagi bir qator tashkilotlar tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining yagona bozori ko'rinishidagi guruhlarni tashkil etilganligi to'g'risida shoshilib e'lon qilgan bo'lsalar-da, hozirgi paytgacha integratsiyaning bu

ko'rinishi amalda faqat G'arbiy Evropada amalga oshirilgan. Umumiy bozorlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- *Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR)* — Argentina, Braziliya, Pargvay va Urugvayni birlashtirgan.
- Markaziy Amerika umumiy bozori - Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvadorni birlashtirgan.
- Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (*KOMESA*), tarkibiga Afrikaning 19 davlati kiradi.
- Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (*ASEAN*) — Tinch va Hind okeanlari o'rtaida joylashgan to'qqizta mamlakatni birlashtirgan.

Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqatgina savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi katta miqdordagi qonuniy me'yorlarni uyg'unlashtirish masalalarini hal etish bilan bog'liq. Shuning uchun ichki bojxona to'siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish, shuningdek, uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish bilan birga, umumiy bozor ishtirokchilari iqtisodiyotning alohida soha va tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali xizmatlar, kapital va ishchi kuchining hech qanday to'siqlarsiz o'tishiga sharoit yaratiladi. Bundan tashqari umumiy bozorni shakllantirish davomida ijtimoiy va hududiy rivojlanish uchun jamoaviy fondlarni yaratishga zaruriyat tug'iladi, umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish jarayonida bu fondlarning ahamiyati juda katta bo'ladi. Bunda millatlararo muvofiqlashtiruvchi organlar muhim ahamiyat kasb etadi. Evropa Ittifoqi tajribasidan ma'lumki, bunday organlarni tashkil etmasdan milliy qonunchilik me'yorlarini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlari bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etishga erishish juda murakkab bo'ladi.

Evropa Ittifoqigina iqtisodiy integratsiyaning eng yuqori cho'qqisiga intilishini yaqqol namoyish etmoqda.

Ma'lumki, Evropa Ittifoqiga a'zo-mamlakatlarning davlat rahbarlari XXI asr boshida o'z oldilariga qo'ygan maqsadga erishishni rejalashtirishgan. Hozircha yakuniy natijalar to'g'risida gapirishga erta bo'lsa-da, iqtisodiy ittifoqqa xos alomatlar ko'zga tashlanib qoldi. Bu alomatlar quyidagilar hisoblanadi: umumiylar qonunchilik me'yorlarini yaratish, soliq bazasini soddalashtirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, muvofiqlashtirilgan pul siyosatini o'tkazish, yagona valyutaga o'tish.

### **Nazorat savollari**

1. Integratsion jarayonlarning ta'riflanishi.
2. Integratsion guruhlar tipologiyasi.
3. TIFni davlatlararo tartibga solinishi.

### **3-mavzu. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi yo'nalishlari**

#### **Reja:**

- 1. O'zbekistonning integratsion salohiyati.**
- 2. O'zbekistonda iqtisodiy integratsiya tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishning muhim jihatlari.**
- 3. O'zbekistonda iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog'liq muammolar va ularning echish yo'llari.**

**Tayanch iboralar:** integratsion salohiyati, iqtisodiy integratsiya tuzilmalari, integratsiya muammolari.

Hozirgi zamon globallashuv davrida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini erkinlashtirish sharoitida jahon xo'jaligida ishtirok etish jarayonlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarida kuch-g'ayratni jamlash zaruriyati yuzaga keldi. Etakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, va gumanitar tashkilotlar, ilg'or Evropa mamlakatlari va AQSh, Osiyo qit'asi davlatlari, MDH mamlakatlari va ayniqsa, Rossiya, shuningdek Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ana shunday yo'nalishlar jumlasiga kiradi. O'zbekiston

milliy iqtisodiyotining jahon xo'jalik tizimiga chuqur integratsiyalashuvi muammolarini hal qilish uchun respublikaning eksport salohiyatini ancha mustahkamlash, eksport qilinayotgan tayyor mahsulotlar assortimenti hajmini oshirish va kengaytirish, respublikaning jahon bozoridan o'rinni olishini faol mustahkamlash zarur. Hozirgi vaqtida amal qilayotgan rag'batlantirishlar va imtiyozlar bilan birga, milliy ishlab chiqarishning eksportga yo'naltirilganligini kuchaytirish, import qilinadigan mahsulotlarning o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni oqilona asoslangan holda rivojlantirish bilan uyg'un ravishda yakuniy mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish muhimdir.

Shu nuqtai nazardan davlatlararo iqtisodiy integratsiya — iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo'lgan davlatlar birlashishining ob'ektiv jarayonidir. U faqat tegishli mamlakatlar tashqi savdo almashuvi sohasi, ularning bozor aloqalarini (xalqaro hamkorlikda bu ko'pincha uchrab turadi) qamrabgina qolmay, balki mazkur mamlakatlar moddiy ishlab chiqarishi sohasiga chuqur kirib boradi, turli darajada va har xil shakllarda qayta ishlab chiqarish tuzilmalarining tobora mustahkamroq o'zaro hamkorligiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ham siyosiy, ham iqtisodiy sohada ko'pgina yutuqlarga erishdi – bu respublikamizning jahon hamjamiyatida faol ishtirok etish va O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama siyosat yuritish davlatimizning jahon xo'jaligida tutgan o'rmini mustahkamlashning muhim shartidir.

Boshqa davlatlar bilan o'rnatiladigan hamkorlik, mintaqaviy integratsiya davlatning har xil ehtiyojlarini qondirish va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi uning oldiga jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish muammosini ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu boradagi kun tartibida turgan eng dolzarb vazifalardan biri O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishi, turli integratsiya birlashmalarida ishtirok etishi va unga

a'zo-mamlakatlar bilan o'zining savdo-iqtisodiy hamda siyosiy aloqalarini takomillashtirish lozimligidan dalolat beradi va bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Jahon xo'jalik aloqalarining moddiy-ashyoviy asoslarini u yoki bu mintaqaviy guruhlar yoxud ittifoqlarga birlashgan mamlakatlarning integratsiyaviy salohiyati tashkil qiladi.

Mamlakatning integratsion salohiyati deganda, fikrimizcha, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning alohida tomonlari-sub'ektlari (integratsiyalashayotgan mamlakatlar) amalga oshiradigan xalqaro ishlab chiqarish-iqtisodiy hamkorlik va almashuv predmeti bo'lgan milliy tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, savdo resurslari, ilmiy xodimlar va odamlarning aqliy qobiliyati majmuini tushunish zarur. O'zbekistonning integratsion aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladigan omillar va sharoitlar orasidan respublika integratsion salohiyatining quyidagi aniq-ravshan ustunliklarini sanab o'tish mumkin, ya'ni:

- O'zbekistonning Evroosiyo qit'asidagi qulay geostrategik joylashuvi;
- er, mineral-xom ashyo va o'simliklarning ancha katta zaxirasi, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay bo'lgan tengi yo'q tuproq-iqlim sharoitlari;
- muhim tashqi savdo va eksport salohiyati;
- tegishli davlatlararo koopretsiyalashuv va birgalikdagi investitsiyalar mavjud bo'lganda ancha qisqa muddatlar ichida tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishga imkon beradigan yirik ishlab chiqarish salohiyati;
- odamlar salohiyati, tez ko'payib borayotgan mehnat resurslari, shuningdek, nisbatan arzon (jahon miqyosida olib qaraganda) ish kuchi mavjudligi;
- rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, birinchi navbatda respublikani MDHning boshqa mintaqalari bilan bog'lab turadigan, avtomobil va temir yo'l magistrallari, telekommunikatsiya tizimining mavjudligi;

- respublikada chet el kapitalini investitsiya qilish, o'zaro foydali tashqi iqtisodiy va integratsion hamkorlikning yaxshi kafolati bo'lgan barqaror siyosat.

Yuqorida ko'rsatilgan pozitsiyalar bo'yicha milliy iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotiga o'gayotgan sharoitida mamlakat integratsiyaviy salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun bu salohiyatning hozirgi holatiga baho berish kerak.

Birinchi navbatda, bu potentsialning tarkibiy qismlari bo'lgan geostrategik joylashuv, tabiiy-xomashyo va mehnat resurslari, shuningdek eksport imkoniyatlari kabilarni tavsiflash lozim.

XXI asr kirib kelishi bilan jahon iqtisodiyotidagi integratsiyaviy moyillik juda yaqqol namoyon bo'ldi. Xalqaro mehnat taqsimoti shu darajaga etdiki, milliy xo'jaliklar tobora ko'proq integratsiyalashuv xususiyatini kasb etmokda. Bu esa xalqaro xo'jalik faoliyatining baynalmilallahuviga olib kelayotganligi haqida gapirishga imkon beradi. Bu sharoitlarda o'zaro hamkorlikning an'anaviy shakllari — xalqaro savdo, kapitallarning ko'chishi, ish kuchiniing migratsiyasi - yangi, aniq ifodalangan institutsional shakllarga ega bo'lmoqda. Bir tomondan, davlatlararo mintaqaviy birlashmalar tuzilmoqda (eng yaqqol misol — Evrohukumat va Evroparlamentga ega bo'lgan Evropa Ittifoqi), boshqa tomondan — o'z faoliyatining xususiyati bo'yicha ham alohida davlatlar, ham butun mintaqalarning hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) keng miqyos olmoqda. Integratsiya haqida gapira turib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlatlar tushunchasiga muvofiq kelgandagina mumkin bo'ladi. Ayni paytda mamlakatmi zamonaviylashtirish uning, shubhasiz, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'rnini topishi, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimini yaratish shartlari mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi".

Yosh, mustaqil davlat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat va jaxrn iqtisodiyotiga integratsiyalashuv muammosi ayian bugun, rasspublikamiz dav-latchiligi shakllanayotgan, jahon xo'jalik tizimida o'z o'rnini

izlayotgan bir paytda va tsivilizatsiyalashgan demokratik jamiyat qurishda o'ta muhimdir.

Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida-integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: "bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoklashmaslikka amal qiladi. Biz bir sub'ekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir", deb alohida ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab qator mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Ular jumlasiga, Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti (MOHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT-ESO), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston bozori keng integratsiyalashgan tuzilmalardan biri Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti bo'lib, unga a'zo mamlakatlar bilan Respublikamizning milliy madaniy-tarixiy xususiyatlari va tabiiy-geografik shart-sharoitlari bir xilligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tuzilma doirasida mintaqa davlatlari maqsadlariga muvofiq keladigan qarorlar va me'yoriy hujjalalar qabul qilingan bo'lsada, ularning amalda ijrosi talab darajasida deyish qiyin. Chunki jarayonning chuqurlashuvi iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Zero, muayyan mintaqada iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganini, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning intensivligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularga mamlakatlarning o'zaro tashqi savdo aylanmasini va uning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hamda sanoat ishlab chiqarishidagi nisbatini kiritish mumkin. Bu ko'rsatkichlar ichida integratsiya masalasida tashqi savdo aylanmasining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga va sanoat

ishlab chiqarishiga nisbati muhimroq bo'lib, ular milliy bozorlarning o'zaro ochiqlik miqyosini, ya'ni, mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol borasida bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizning ushbu mintaqada kechayotgan integratsiya jarayonidagi o'rni va dinamikasi savdo aloqalari bo'yicha ma'lumotlar asosida tahlil qilamiz. Bu mintaqa mamlakatlari ichida savdo aloqalari Qozog'iston bilan salmoqli darajada rivojlangan, qolganlari bilan esa nisbatan cheklangan darajada aloqalar o'rnatalganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2012 yilda 2000 yilga nisbatan MOHT mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi o'rtacha 3,8 baravarga, eksport hajmi 4,1 baravarga va import hajmi 3,6 baravarga ortgan.

Milliy iqtisodiyotimizning tashqi iqtisodiy aloqalari yo'naliishlari qatoriga Iqtisodiy Hamkorlik Tashqiloti doirasidagi mamlakatlar bilan olib borilayotgan munosabatlar ham kiradi. Bu tuzilma doirasidagi mamlakatlar bilan Uzbekiston hamkorligining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy va tabiiy-geografik shart-sharoitlar ham iqtisodiy omillar kabi o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Modomiki, iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush farovonligi muhim ahamiyat kasb etar ekan, unga salbiy ta'sir qiladigan omillarni vaqtida bartaraf qilish zarur. Jumladan, milliy bozorlarda talabi kuchli bo'lган tovarlarning importini kengaytirish, eksportga tovar chiqaruvchilarning tashkiliy va moliyaviy jihatdan rag'batlantirish lozim. Natijada ichki bozorlarda erkin raqobat kuchayib ishlab chiqarishning rivojlanishi va mavjud resurslardan samarali foydalanish iqtisodiyotlarning yuksalishiga va o'zaro integratsiyalashuvining chuqurlashuviga zamin bo'ladi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekistonning integratsion salohiyati.
2. O'zbekistonda iqtisodiy integratsiya tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishning muhim jihatlari.
3. O'zbekistonda iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog'liq muammolar va ularning echish yo'llari.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

### **AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotlar respublikamizdagi ilg'or korxona va tashkilotlarda o'tkaziladi hamda amaliy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan amaliyotchilar bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida tinglovchilar jahon iqtisodiyotiga ta'luqli bo'lgan ma'lumotlar yig'ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholash; kuzatishlar natijasida olingan ma'lumotlarni tizimlash va qayta ishslash; ma'lumotlarni qayta ishslash natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-amaliy mashg'ulot.**

#### **Globallashuv davrida jahon xo'jaligida integratsion jarayonlarni rivojlantirish shart-sharoitlari**

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati.
2. Globalashuv jarayonida iqtisodiy integratsiyaning o'rni.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning namayon bo'lish yo'nalishlari.
4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning statik samaralari.
5. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning dinamik samaralari.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, iqtisodiy integratsiya, statik samara, dinamik samara, savdoni shakllanish samarasi. savdodan chetlashish samarasi..

Dars shakli: Debat usuli. Muhokama etiladigan masalalar va keys - stadi.

"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari


Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li><li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li><li>✓ axborotni umumlashtirish;</li><li>✓ axborot tahlili;</li><li>✓ muammolarni aniqlash</li></ul>
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ individual va guruhda ishslash;</li><li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li><li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li></ul>
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"><li>✓ individual va guruhda ishslash;</li><li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li><li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li></ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	

### ❖ Muhokama uchun savollar

1. Jhon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashning mohiyati va mazmuni.
2. Jhon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish darajasi.
3. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tasniflash usullari.

1. Rivojlangan mamlakatlarda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini ("Baliq skeleti" texnikasi orqali yoritib bering).



### Foydalanimgan adabiyotlar

1. G.G.Nazarova, Z.M.Iminov, X.X.Xalilov, O.B.Xamidov. Jhon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. -T.: TDIU, 2011.
2. Krugman. Obstfeld.Melitz. International Economics. 2014, Prentice Hall.
3. James Gerber. International Economics. Fifth Edition. Pearson, 2012. - 471 pages.

### 2-amaliy mashg'ulot.

### Mamlakatlararo integratsion hamkorlik rivojlanishining ob'ektiv omillari va bosqichlari

Muhokama etiladigan masalalar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning maqsadi va vazifalari.
2. Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari va rivojlanish omillari.
3. Integratsiya jarayonlarining shakllari va bosqichlari.
4. Integratsion birlashmalar tipologiyasi.


**Kalit so'zlar:** ustunlikni namoyish qilish samarasi, "domino samarasi", erkin savdo zonasasi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi, to'liq integratsiya

Dars shakli: Debat usuli.

### ❖ Muhokama uchun savollar

1. Rivojlangan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan urni va roli.

2. Xorijiy sarmoyalar - rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotida qanday ahamiyatga ega? (“Baliq skeleti” texnikasi orqali yoritib bering).



- 3 Postindustrial mamlakatlarning jaxon xo’jaligida tutgan o’rnini baholab bering.
- 4 Postindustrial mamlakatlarning rivojlanish modellari xususiyatlari.

### 3-amaliy mashg’ulot.

#### 3-mavzu. O’zbekistonning jahon xo’jaligiga integratsiyalashuvi yo’nalishlari

Muhokama etiladigan masalalar:

1. O’zbekistonning integratsion salohiyati.
2. O’zbekistonda iqtisodiy integratsiya tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishning muhim jihatlari.
3. O’zbekistonda iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog’liq muammolar va ularning echish yo’llari.
4. Mustaqil davlatlar hamdo’stligini rivojlanish xususiyatlari.
5. MDHda integratsiya jarayonlarini rivojlanish muammolari va istiqbollari.
6. O’zbekistonni xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishini ustuvor yo’nalishlari.

**Kalit so’zlar:** integratsion salohiyat, iqtisodiy integratsiya tuzilmalari, integratsiya muammolari, Mustaqil davlatlar hamdo’stligi, Umumiy iqtisodiy hudud, Evroosiyo iqtisodiy hamkorligi, savdo urushlari, integratsion salohiyat, iqtisodiy integratsiya tuzilmalari, integratsiya muammolari.


Dars shakli: Debat usuli.

#### ❖ Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari va zaif tomonlarini belgilang (grafik tashkil etuvchi – T-sxemadan foydalangan holda).

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari

2. Integratsiyaning milliy iqtisodiyotlarga ta’siri («Kaskad» texnikasi orqali yoritib bering).



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Greg Ip. The Little Book of Economics: How the Economy Works in the Real World. John Wiley & Sons, 2012. - 288 pages.
  2. Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.
  3. Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013.- 352 s.
  3. FSMU texnologiyasi yordamida “O’zbekistonda iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog’liq muammolar va ularning echish yo’llarining ahamiyati nimada?”( savolini yo’naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida echish).
- Yo’naltiruvchi uslubiy tavsiyalar: resurslardan samarali foydalanish, xalqaro savdo, eksport, import va h.k.

Savol	“O’zbekistonda iqtisodiy integratsiya jarayoni bilan bog’liq muammolar va ularning echish yo’llarining ahamiyati nimada?”
(F)-Fikringizni bayon eting	
(S)-Fikringiz bayoniga sabab ko’rsating	
(M)-Ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring	
(U)-Fikringizni umumlashtiring	

### FSMU texnologiyasi qoidasi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda xamda o’quv jarayonini baxs-munozarali o’tkazishda qo’llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o’z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o’ratadi.Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog’ozga o’z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko’rsating

M – ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.
2. Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013.- 352 s.
3. A.A.Isadjanov. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. T.: JIDU, 2008, 36-57 b.

## V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti” modulidan bitiruv ishlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishni ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni (PF-4848. 05.10.2016 y.) da tadbirkorlik sub’ektlarini qo’llab-quvvatlash masalalari.

3. Prezident Sh.Mirziyoevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni (7 fevral 2017 y.) maqsadi va vazifalari.

5. Jahon iqtisodiyotda Yangi industrial davlatlarning tutgan o’rni.
6. Bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari.
7. Jahon xo’jaligida iqtisodiy xavfsizlik muammolari.
8. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning tutgan o’rni.
9. Jahon xo’jaligida iqtisodiy o’sish va ijtimoiy rivojlanish muammolari.
10. Erkin iqtisodiy hududlar va ularni tashkil etish muammolari.
11. Xalqaro raqobat va uning zamonaviy sharoitda yuzaga chiqish xususiyatlari.
12. Zamonaviy jahon xo’jaligi sub’ektlari va mamlakatning jahon iqtisodiyotdagi o’rnini tavsiflovchi ko’rsatkichlar tizimi.
13. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni va mohiyati.
14. Xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik.
15. Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat muammosi.
16. Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyoti.
17. Frantsiya Respublikasi iqtisodiyoti.
18. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi iqtisodiyoti.
19. Italiya Respublikasi iqtisodiyoti va jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy munosabatlari.
20. Yaponiya iqtisodiyoti.

## VI. KEYSALAR BANKI

### **Philips kompaniyasi maishiy texnika ishlab chiqarish zavodlarini sotmoqda**

**Philips electronics** kompaniyasi maishiy texnika ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan bir nechta zavodlarini sotishni muljallamokda. Bundan tashqari **Philips** videomagnitofonlarini ishlab chiqarish xukuki Yaponiyaning **Funai Elesris** korporatsiyasiga beriladi. Gollandiya kompaniyasining bu qarori raqamlı videodisklar ishlab chiqarish kabi video yozish soxasining juda mukammal rivojlanib ketishi bilan izoxlanadi. **Philips** ning maishiy bo'lim mudiri Gi Demeynkning fikriga ko'ra **Funai Elesris** bilan xamkorlik kompaniyaga dunyoda etakchi o'rnlardan birini saqlab qolishida qo'l keladi. Agar avval Yaponiyada **Philips** markasi bilan ishlab chiqarilgan videomagnitofonlar AQSh uchun sotilgan bo'lsa, endi bu maxsulot Evropa bozorini xam to'ldirishi ko'zda tutilgan.

Iyun oyida Gollandiya kompaniyasi raxbariyati foyda keltirmayotganligi sababli mobil telefonlar ishlab chiqarish xuquqini Xitoydagi qo'shma korxonaga berilishini e'lon kildi. Xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan restruktrizatsiya rejasi o'z ichiga ommaviy ravishda xodimlar shtatlarini qisqartirishni xam o'z ichiga oladi. Oldin 10 ming ta xodimni ishdan bo'shatish rejalashtirilgan edi. Restruktrizatsiya avvalo maishiy texnika soxasidagi xodimlarga qaratiladi. Taxlilchilar fikriga ko'ra, kompaniyani boshqarish kursi va yo'nalishi oldindan aytish mumkin, chunki **Philips** kompaniyasi maishiy texnikaning yangi turlarini ishlab chiqarishga xarakat qilmokda.

### **Topshiriklar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kaysi turi to'g'risida gap ketmokda? Kim uning sub'ekti xisoblanadi?
2. Ushbu xolatni xalqaro savdoning kaysi nazariyasi to'larok va anikroq eritadi?

### **Germaniya immigrantlar uchun o'z eshiklarini kengroq ochishga xarakat qilmokda**

Berlinda yaqinda hukumat komissiyasining qarori e'lon qilindi, unga ko'ra Germaniya davlati xar yili 50 mingga yakin immigrantlarni qabul qilishi lozim, aks xolda ishchi kuchi etishmasligi og'ir muammoga aylanishi mumkin. Ekspertlar komissiyasi mamlakatga chet elliklar kelishi borasidagi muammolarni o'rganib chiqdi. Bundan chiqarilgan asosiy xulosa shundan iborat bo'ldiki, yosh va malakali mutaxassislar Germaniyaga kelmaydigan bo'lsa, tug'ilish keskin sur'atlar bilan kamayib borayotgan bu paytda iqtisodiy taraqqiyot va yuqori xayot tarzi kabi orzular xom xayolligicha qolib ketaverishi mumkin.

Buning uchun Germaniyaga asosan uch turdag'i immigrantlarni jalg qilish kerak bo'ladi. Nisbatan yosh va 45 yoshgacha bo'lgan malakali 20 mingta chet ellik mutaxassislar Germaniyada chegaralanmagan muddatda yashash va shu erda ishslash xukukini qo'lga kiritadilar. Buning uchun nomzodlarni balli sistema yordamida sinovdan o'tkaziladi. Nozodlar qanchalik yosh, malakali va tajribali bulsa ularga

shunchalik ko'p ball qo'yiladi. Chet tillarini, xususan nemis tilini bilish va farzandlarning borligi Germaniyaga borish imkoniyatini yanada oshiradi. Ikkinchchi kategoriyada xam 20 mingta nomzodlar saralanib olinadi. Bunga hozirgi vaqtida Germaniyada juda kamyob mutaxassislik egalari kiritiladi. Ular Germaniyada vaqtinchalik yashash va ishlash xuquqini qo'lga kiritishadi. Immigrantlarning uchinchi kategoriyasida maktablarning bitiruvchilarini jalb qilish nazarda tutilgan. Ular Germaniyada professional texnik ma'lumot olishlari mukin va xoxishiga ko'ra Germaniyada doimiy qolishlari mumkin. Shu bilan birga chet ellik olimlarning Germaniyaga kelishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgan.

Davlat tomonidan beriladigan yordamga chet eldan kelib Germaniyada uz ishini ochmoqchi bo'lganlar ishonishlari mumkin. Bu masalan, kimeviy tozalash korxonasi, avtoustaxona yoki restoran va xatto bank xam bo'lishi mukin. Asosiysi soliqlarni o'z vaqtida tulashdir.

### **Topshiriklar**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qaysi turi to'g'risida gap ketmokda? Va qaysi muammoni xal qilish lozim?
2. Immgratsiyaning qaysi ko'rinishlari haqida to'xtab o'tildi?
3. Germaniya immigratsion siesatning qaysi instrumentlarini ishlatmokda?
4. Germaniya immigrantlarini qabul qilib qaysi imkoniyatlarga ega bo'ladi?

## VII. GLOSSARIY

<b>“Brain drain”</b>	<b>Utechka mozgov</b>	<b>“Aqlli kishilarning ketib qolishi”</b>	- mamlakatning intellektual salohiyatlari vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.
<b>Stock</b>	<b>Aktsiya</b>	<b>Aksiya</b>	– qimmatbaho qog’oz, u hissadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag‘ sarflanganligi dalolati bo‘lib, uning egasiga hissadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tariqasida olish huquqini beradi.
<b>Association</b>	<b>Assotsiatsiya</b>	<b>Assotsiatsiya</b>	– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ixtiyoriy birlashmasi.
<b>Employment</b>	<b>Zanyatost</b>	<b>Bandlik</b>	– mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg’ul bo’lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq bo’lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.
<b>Bancrupt</b>	<b>Bankrot</b>	<b>Bankrot</b>	-xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kruditorlar talablarini to’la xajmda qondirishga yoki majburiy to’lovlar bo'yicha o’z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.
<b>The requirements of the Basel Committee</b>	<b>Trebovaniya Bazelskogo komiteta</b>	<b>Bazel qo’mitasi talablari</b>	– bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o’z majburiyatlarini bajara olishini ta’minlash uchun o’rnatilgan xalqaro me’yorlar majmui bo‘lib, u kapitalning etarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor

			intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi.
<b>The Customs Union</b>	<b>tamojenniy soyuz</b>	<b>Bojxona ittifoqi</b>	- ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.
customs tariff	<b>tamojenniy tarif</b>	<b>Bojxona tarifi</b>	- tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati
<b>The market</b>	<b>Rinok</b>	<b>Bozor</b>	– sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi mahsulot sotish va xarid qilish bo'yicha erkin munosabatlar tizimi. Bozorlar o'z hududiy masshtabiga ko'ra lokal, milliy va xalqaro bozorlarga bo'linadi. Oldi-sotди ob'ekti bo'lib, iste'mol tovarlari, resurslar, (mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati, axborot) va xizmatlar hisoblanadi.
<b>budget deficit</b>	<b>byudjetniy defitsit</b>	<b>Byudjet defitsiti</b>	– byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.
<b>The income</b>	<b>Doxod</b>	<b>Daromad</b>	– tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat natijasida pul yoki natura shaklida olinadigan mablag'lar.
<b>State budget</b>	<b>gosbyudjet</b>	<b>Davlat byudjeti</b>	- davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasи.
<b>deflation</b>	<b>deflyatsiya</b>	<b>Deflyatsiya</b>	– inflyastiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul - kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

<b>The demographic explosion</b>	<b>Demografich eskiy vzriv</b>	<b>Demografik portlash</b>	- jahonning kam rivojlangan va kambagal mamlakatlarida nazorat kilib bo'lmaydigan darajada aholi sonining o'sishi.
<b>diversify</b>	<b>diversifitsiro vat</b>	<b>Diversifikatsiya</b>	– (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.
<b>The dividend</b>	<b>Dividend</b>	<b>Dividend</b>	– hissadorlik jamiyati foydasining (soliqlar to'lanib, barcha qarz beruvchilar bilan hisob-kitob qilinganidan keyingi) hissadorlar o'rtasida ular qo'llidagi aktsiyalarga mutanosib tarzda taqsimlanadigan qismi.
<b>The export quota</b>	<b>eksportnaya kvota</b>	<b>Eksport kvotasi</b>	- mamlakat eksporti hiymatining unig yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).
<b>embargo</b>	<b>embargo</b>	<b>Embargo</b>	- alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash
<b>free trade zone</b>	<b>Zona svobodnoy torgovli</b>	<b>Erkin iqtisodiy hudud</b>	-mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga

			yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.
<b>Stock market</b>	<b>fondoviy rinok</b>	<b>Fond bozori</b>	- qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldisotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.
<b>franchising</b>	<b>franchayzing</b>	<b>Franchayzing</b>	- bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.
<b>GATT</b>	<b>GATT</b>	<b>GATT</b>	- Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv - tashqi savdo operastiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akTayvan
<b>immigration quota</b>	<b>immigratsionnaya kvota</b>	<b>Immigratsion kvota</b>	xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.
<b>The inflation rate</b>	<b>Uroven inflyatsii</b>	<b>Inflyatsiya darajasi</b>	- ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.
<b>innovative technologies</b>	<b>innovatsionnie texnologii</b>	<b>Innovatsion texnologiyalar</b>	- iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.
<b>investment credit</b>	<b>investitsionniy kredit</b>	<b>Investitsion kreditlar</b>	- ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizastiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni

			sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.
<b>The investment</b>	<b>Investitsiya</b>	<b>Investitsiya</b>	– bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (akstiya, obligastiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, listenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.
<b>investitsionniy klimat</b>	<b>investitsionniy klimat</b>	<b>Investitsiya muhiti</b>	– investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.
<b>investor</b>	<b>investor</b>	<b>Investor</b>	- xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati sub'ektlari. Investorlar ob'ektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi.
<b>Economic activity</b>	<b>Ekonomicheskaya deyatelnost</b>	<b>Iqtisodiy faoliyat</b>	– cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.
<b>economic integration</b>	<b>Ekonomiche s-kaya integratsiya</b>	<b>Iqtisodiy integratsiya</b>	- hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

<b>economic alliance</b>	<b>ekonomiches kiy soyuz</b>	<b>Iqtisodiy ittifoq</b>	- iqtisodiy integratsiyaning oliv ko'rinishi, u umumiy huquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.
<b>Economic growth</b>	<b>Ekonomiche skiy rost</b>	<b>Iqtisodiy o'sish</b>	- mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yildan-yilga barqaror o'sib borish jarayoni.
<b>Economic resources</b>	<b>Ekonomiche skie resursi</b>	<b>Iqtisodiy resurslar</b>	- tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
<b>Economy</b>	<b>Ekonomika</b>	<b>Iqtisodiyot</b>	- mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtaсидagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.
<b>Manufacture</b>	<b>Proizvod-stvo</b>	<b>Ishlab chiqarish</b>	- biznes korxonalarining asosiy faoliyat turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi.
<b>The World Bank</b>	<b>Vsemirniy bank</b>	<b>Jahon banki</b>	- 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.
<b>World market</b>	<b>mirovoy rinok</b>	<b>Jahon bozori</b>	- moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chikarish,

			taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol boskichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.
<b>World market conditions</b>	<b>Kon'yunktura mirovogo rinka</b>	<b>Jahon bozori kon'yunkturasi</b>	-jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.
<b>World Market Workers Labor</b>	<b>Mirovие rинок рабочие труда</b>	<b>Jahon ishchi kuchi bozori</b>	- milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiatи va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migration aylanmasi.
<b>The World Trade Organization</b>	<b>Vsemirnaya torgovaya organizatsiya</b>	<b>Butunjaho n savdo tashkiloti</b>	- xalqaro savdoni institustional va xuquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkiloTayvan
<b>cartel</b>	<b>kartel</b>	<b>Kartel</b>	- tashqi savdo assostiasiysi (uning a'zolari alohida tovar guruhlari bo'yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).
<b>Group of twenty</b>	<b>Bolshaya dvadtsatka</b>	<b>Katta yigirmatalik</b>	- 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.
<b>Conjuncture</b>	<b>Kon'yunktura</b>	<b>Kon'yunktura</b>	- bozor mexanizmi sharoitlarida rivojlanishning qonuniyatli shakllari davlat tomonidan tartibga solinishi va raqobatning,

			iste'molchilar, korporatsiyalar hamda davlat muassasalari va korxonalari tomonidan qaror qabul qilishdagi mutaqillikning muvozanati bilan belgilanuvchi jarayonlar: muayyan iqtisodiy faoliyat omillari va shart-sharoitlari yig'indisi.
<b>Concern</b>	<b>Kontsern</b>	<b>Kontsern</b>	– ma'lum bir turdag'i vazifalarni bajarish uchun vaqtincha tuzilgan ilmiy-texnikaviy, investitsion tarkibiy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy siyosatni hamda tegishli resurslarni markazlashtiruvchi korxonalar birlashmasi.
<b>Cooperative ties</b>	<b>Kooperativni e svyazi</b>	<b>Kooperatsiya aloqalari</b>	– turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.
<b>Corporation</b>	<b>Korporatsiya</b>	<b>Korporatsiya</b>	– hissadorlik jamiyati yoki hissadorlik birlashmasi ko'rinishidagi huquqiy shaxs shakli. U chiqarilgan aktsiyalar qiymati bilan cheklangan majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatli bo'ladi, o'z nomidan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish, kontraktlar tuzish, qarz olish yoki berish, boshqa har qanday fuqarolik harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.
<b>The credit</b>	<b>Kredit</b>	<b>Kredit</b>	– qarz mablag'ining harakat shakli. Qaytarish va to'lov (foizni to'lash) shartlari bilan beriladigan pul yoki tovar shaklidagi qarz kredit beruvchi bilan qarz oluvchining iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi. Kreditning tijorat, davlat, bank,

			iste'mol, xalqaro shakllari mavjud.
<b>labor market</b>	<b>rinok truda</b>	<b>Mehnat bozori</b>	-mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmanan qismlari va ish beruvchilar o'rtaсидаги munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtaсидаги nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.
<b>modernization</b>	<b>Moderniza-tsiya</b>	<b>Modernizatsiya</b>	-ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.
<b>The financial market</b>	<b>Finansoviy rinok</b>	<b>Moliya bozori</b>	- moliya mablag'larini vaqtincha haq to'lab ishlatalish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlardir.
<b>Financial and banking system</b>	<b>Finansovaya i bankovskaya sistema</b>	<b>Moliya-bank tizimi</b>	-tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuidir.
<b>preferences</b>	<b>Predpochteniya</b>	<b>Preferensiya</b>	- iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.
<b>protectionism</b>	<b>protektsionizm</b>	<b>Proteksionizm</b>	- davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori

			bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqilanganadi.
<b>Monetary and Credit Policy</b>	<b>Denejno-kreditnaya politika</b>	<b>Pul - kredit siyosati</b>	– davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.
<b>external debt</b>	<b>vneshniy dolg</b>	<b>Tashqi qarz</b>	– mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.
<b>Foreign trade</b>	<b>vneshnetorg oviy</b>	<b>Tashqi savdo</b>	– bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.
<b>Foreign Trade Policy</b>	<b>Politika vneshney torgovli</b>	<b>Tashqi savdo siyosati</b>	– bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati.
<b>Technology</b>	<b>Texnologiya</b>	<b>Texnologiya</b>	– tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi amaliy bilimlar.
<b>Direct investments</b>	<b>Pryamie investitsii</b>	<b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar</b>	- foyda olish bilan birgalikda kapital ko'yilayotgan ob'ekt ustidan nazoratni ta'minlash xuquqini beruvchi kapital qo'yilmalari.
<b>balance of payment</b>	<b>Platejnyi balans</b>	<b>To'lov balansi</b>	-muayyan muddat davomida mamlakatning xorijiy davlatlarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga xorijiy davlatlardan tushgan to'lovlar summalari nisbatini tavsiflaydi. To'lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi,

			xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarining chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.
<b>The total market</b>	<b>obshchiy rinok</b>	<b>Umumiy bozor</b>	- ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.
<b>currency</b>	<b>valyuta</b>	<b>Valyuta</b>	- ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valyuta), bir yoki bir necha etakchi mamlakatlarning valyutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari
<b>International cooperation</b>	<b>mejdunarod noe kooperatsiya</b>	<b>Xalqaro kooperatsiyasi</b>	- ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro bir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning xamkorlik qilishi.
<b>International Economic Relations</b>	<b>Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya</b>	<b>Xalqaro iqtisodiy munosabatlar</b>	-mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.
		<b>Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi</b>	-mamlakatlar o'rtasidagi mexnat taqsimoti ko'rinishi bo'lib, unda o'zlarining ichki extiyojlaridan ortiqcha bir turdag'i maxsulotlar tayyorlash bilan shugullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqlanishi yuz beradi.
<b>international organizations</b>	<b>mejdunarodniye organizatsii</b>	<b>Xalqaro tashkilotlar</b>	-ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro

			siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.
<b>international transit</b>	<b>mejdunarod niy tranzit</b>	<b>Xalqaro tranzit</b>	-xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.
<b>International Monetary Fund (IMF)</b>	<b>Mejdunarod niy valyutniy fond (MVF)</b>	<b>Xalqaro valyuta jamg'armasi</b>	– xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkiloTayvan
<b>Service sector</b>	<b>sektor uslug</b>	<b>Xizmat ko'rsatish sohasi</b>	– ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lмаган иштимоий тарбиятнинг маддий-буйумлашган көрнеки формасида олар таҳсилотни ташкил этишадиган. У о'з ичига маддий хизматлар ко'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy

			maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.
<b>Gross domestic product</b>	<b>Valovoy vnutrenniy produkt</b>	<b>Yalpi ichki mahsulot</b>	-mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati
<b>New industrial countries</b>	<b>Novie industrialnie strani</b>	<b>Yangi industrial mamlakatlar</b>	- iqtisodiy jixatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

## **VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'limga to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabr “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi O'RQ-589-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta'limga muosasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'limga tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgust “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muxitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5495-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabr PQ-4022-sonli “Raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamlı infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy

salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyun "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-sonli Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabr "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 yanvar "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563 -sonli Qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

25. Bondarev A.K. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya: Uchebnik/ A.I.Evdokimov, A.K.Bondarev, S.M.Drozdov; Pod red. A.I.Evdokimov. – M.: Prospekt, 2013, 656 s.

26. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xadjibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – T.: Baktria, 2015. – 584 b.

27. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.

28. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya: Uchebnik dlya vuzov /Pod red.L.N.Krasavinoy. – 4-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2014. – 543 s.

29. Moroz I.I. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya (dlya bakalavrov) / I.I.Moroz. – M.: KnoRus, 2013. – 256 s.

30. Ponomareva E.S. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnoe posobie/E.S.Ponomareva, L.A.Kriventsova. – M.: YuNITI, 2013. - 287 s.

31. Radjabova Z.K. Mirovaya ekonomika: Uchebnik / Z.K. Radjabova. - 3-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2010. – 304 s. – EBS: <http://znanium.com/> Kudrov V.

M. Mirovaya ekonomika: Ucheb. posobie / V.M. Kudrov. – M.: Magistr: NITs INFRA-M, 2013. – 416 s. – EBS: <http://znanium.com/>

32. Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. T.: O'zbekiston, 2015. –176 b.
33. Tuxliev N. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya: rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlari. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. – 116 b.
34. Tuxliev N. O'zbekiston iqtisodiyoti anatomiyasi. – T.: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2019. – 404 b.
35. Chebotarev N.F. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik dlya bakalavrov / N.F.Chebotarev..- M.:Dashkov i K, 2013. – 352 s.
36. Ekonomika stran blijnego zarubejya: Ucheb.posobie / Mos. Gos. i-t mejdunar. otnosheniy (un-t) MID Rossii; Pod red. A.S.Bulatova - M.: Magistr: INFRA-M, 2011. - 352 s.- EBS : <http://znanium.com/>
37. David Spencer "Gateway", Students book, Macmillan 2012.
38. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
39. Global Financial Markets./7 the edition. Stephen Valdez & Philip Molyneux. Palgrave McMillan, 2013. 537r.
40. Greg Ip. The Little Book of Economics: How the Economy Works in the Real World. John Wiley & Sons, 2012. - 288 pages.
41. H.Q. Mitchell "Traveller" B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
42. H.Q. Mitchell, Marilena Malkogianni "PIONEER", B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
43. Howard Richards. Understanding the Global Economy. Peace Education Books, 2014. - 311 pages.
44. James Gerber. International Economics. Fifth Edition. Pearson, 2012. - 471 pages.
45. Krugman. Obstfeld. Melitz. International Economics. 2014, Prentice Hall.
46. Lindsay Clandfield and Kate Pickering "Global", B2, Macmillan. 2013. 175.
47. Me Connell, Brue. Economics. 17<sup>th</sup> edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2014.
48. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016.
49. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.
50. Steve Taylor "Destination" Vocabulary and grammar", Macmillan 2010.

#### **IV. Internet saytlar**

51. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) — O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
52. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjalari ma'lumotlari milliy bazasi.
53. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) — O'zbekiston Milliy Axborot agentligi
54. [www.ifmr.uz](http://www.ifmr.uz) - Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti.
55. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Ziyonet ta'lim portalı.
56. [www.economics.ru](http://www.economics.ru) — "Ekonomiceskaya gazeta" gazetasining rasmiy sayti.

57. <https://openedu.ru/> Otkritoe obrazovanie.
58. www.ZiyoNet.uz – axborot ta’lim tarmog’i.
59. [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)- Bosh ilmiy-metodik markaz.